

PAPER

BADIIY TASVIR VOSITALARI ORQALI MILLIY XARAKTER YARATISH (SHUKUR XOLMIRZAYEV VA O. HENRY ASARLARI TAHLILI)

Abdunabiyeva Baxoroy Ikromjon qizi^{1,*}

¹Andijon davlat chet tillari instituti Filologiya va tillarni o'qitish (ingliz tili) yo'nalishi 1-bosqich talabasi

*abdunabiyeva@gmail.com

Abstract

Mazkur maqolada badiiy tasvir vositalaridan foydalanish orqali milliy xarakter yaratish muammosi yoritiladi. O. Henry va Shukur Xolmirzayev hikoyalari tahlili asosida metafora va tashbeh kabi badiiy vositalarning qahramon xarakterini shakllantirishdagi o'rnini tahlil qilinadi. Taqqosiy tahlil metodiga asoslangan holda ingliz va o'zbek adabiyotidagi tasviriy san'at vositalarining o'xshash va farqli jihatlari aniqlanadi.

Key words: metafora, tashbeh, badiiy tasvir vositalari, milliy xarakter, adabiy-estetik tahlil, Shukur Xolmirzayev, O. Henry.

Kirish

Adabiyot –inson ruhiyatining aks-sadosi, milliy va umuminsoniy qadriyatlarining ko'zgusi hisoblanadi. Har bir xalqning tarixi, madaniyati va dunyoqarashi adabiyotda o'z ifodasini topadi. Bu jarayonda badiiy tasvir vositalari, ayniqsa, metafora va tashbeh alohida ahamiyat kasb etadi. Ushbu san'at vositalari orqali adiblar o'z qahramonlarini yanada ta'sirchan tasvirlab, ularning ichki dunyosini ochib beradilar.

Metafora va tashbeh faqatgina tasviriy ifoda vositasi bo'lib qolmay, balki milliy o'ziga xoslikni, xalqning dunyoqarashi va hayotga bo'lgan munosabatini aks ettirishga xizmat qiladi. Har bir millatning badiiy tafakkuri o'ziga xos bo'lib, aynan shu jihatlarda o'zbek va ingliz adabiyotida ham yaqqol namoyon bo'ladi. O'zbek adabiyotining yirik vakillaridan biri Shukur Xolmirzayev asarlarida metaforalar milliy ruhiyat, xalqona tafakkur, hayot falsafasi va qahramonlar xarakterini ochishda muhim rol o'ynaydi. Xuddi shunday, mashhur amerikalik yozuvchi O. Henry ham o'z asarlarida metafora va tashbehlardan foydalanib, o'z shaxs davr jamiyatining xarakterini ochib berishga intilgan.

Ushbu maqolada Shukur Xolmirzayev va O. Henry asarlarida metafora va tashbehlarning o'rnini, ularning milliy xarakter yaratishdagi roli tahlil qilinadi. Tadqiqot jarayonida ikki adibning tasviriy san'at uslublari qiyosiy tahlil qilinib, ularning o'zaro farqlari va o'xshashliklariga e'tibor qaratiladi. Shu orqali

metafora va tashbehlarning adabiy nutqdagi ahamiyati, ularning milliy madaniyat va xalq tafakkurini ifodalashdagi roli yanada chuqurroq yoritiladi.

Metodlar

Ushbu tadqiqotda badiiy tasvir vositalari –xususan, metafora va tashbehlarning orqali milliy xarakterning yaratilishini o'rganishda bir nechta ilmiy tahlil metodlariga asoslanildi. Har bir metod tadqiqotning alohida maqsad va vazifalarini amalga oshirishda muhim ahamiyat kasb etdi:

1. Struktur-semantik tahlil –Ushbu metod orqali badiiy tasvir vositalarining ichki tuzilishi (strukturasi) va ma'nosi (semantikasi) o'rganildi. Ayniqsa, metafora va tashbehlarning qanday tuzilma asosida yaratilgani, ularning tilshunoslik va adabiy-estetik jihatdan qanday ma'no yuklayotgani tahlil qilindi. Bu metod orqali ularning qahramon xarakterini shakllantirishdagi funksional vazifasi aniqlashtirildi.

2. Taqqosiy tahlil –Ingliz (O. Henry) va o'zbek (Shukur Xolmirzayev) adabiyotidagi badiiy tasvir vositalarining o'xshash va farqli jihatlari ushbu metod yordamida o'rganildi. Qiyosiy tahlil yozuvchilarning milliy madaniyatga bog'liq estetik qarashlarini, tasviriy vositalarning xalq ruhiyatiga mos tarzda ishlatilishini ochib berishda muhim vosita bo'ldi.

3. Kontekstual tahlil – Badiiy tasvirlar, xususan, metafora va tashbehnlarning matn doirasidagi ma’nodoshlik darajasi, ularning kontekstda qanday ishlatilgani o’rganildi. Qahramonning ichki dunyosi, ijtimoiy muhitga munosabati, ruhiy kechinmalari aynan shu kontekstual tahlil orqali chuqurroq ochib berildi. Bu uslub orqali tasvirlar muallif g’oyasiga qanday xizmat qilayotgani aniqlashtirildi.

4. Stilistik tahlil – Metafora va tashbehnlarning uslubiy qiymati, yozuvchilarning individual yozuv uslublari va estetik yondashuvlari o’rganildi. O. Henryning kinoyaviy, yumoristik tili bilan Shukur Xolmirzayevning lirizmga moyil, obrazli uslubi o’zaro solishtirildi. Har ikki muallif o’z milliy madaniy kontekstiga xos uslubda badiiy vositalarni qo’llaganini aniqlashtirildi.

5. Diskursiv tahlil – Adabiy matnning umumiy semantik qatlamlari, tasvir vositalarining g’oyaviy–estetik mazmuni va ularning ijtimoiy–kultural konnotatsiyasi o’rganildi. Metafora va tashbehlar orqali yaratilgan badiiy obrazlar ijtimoiy muhit, axloqiy qadriyatlar va milliy xarakterni qanday anglatishi chuqur tahlil qilindi. Bu metod yozuvchilar matnida qanday diskurs (tafakkur, dunyoqarash) mavjudligini ochib berishga xizmat qildi.

Natijalar va tahlil

O. Henry hikoyalarida badiiy tasvir vositalarining qo’llanilishi nafaqat uslubiy mahorat belgisi, balki inson ruhiyatining eng nozik qatlamlarini ifodalashda muhim vosita sifatida namoyon bo’ladi. Uning metafora va tashbehnlari hikoyaning syujet dinamikasiga jon bag’ishlabgina qolmay, qahramonlar kechinmalari, orzu–umidlari va ichki ziddiyatlarini teran yoritishga xizmat qiladi. O. Henry o’z asarlarida oddiy hayotiy holatlar ortiga yashiringan chuqur insoniy dramatismni aynan mana shu tasviriy vositalar orqali ochib beradi.

“The Cop and the Anthem” hikoyasida Soapyning holati orqali erkinlik va majburiyat o’rtasidagi ichki kurash tasvirlanadi. Metafora sifatida keltirilgan “g’ujanak bo’lgan chumchuq” obrazi orqali nafaqat qish sovuqligini, balki Soapyning ichki iztiroblari, hayotga bo’lgan munosabati, jamiyatdan ajralib qolganini badiiy ifoda etadi. Bu metafora o’quvchiga faqat tashqi holatni emas, balki qahramonning qalbida kechayotgan haroratli iztirobni his ettiradi.

“Soapy qishda erkin yuradigan qushday yashashni orzu qilardi, biroq qish kelganda, u o’zini olov izlab g’ujanak bo’lgan chumchuqdek his qilardi.”

Ushbu metafora Soapyning shaxsiy iztiroblarini, yashashga bo’lgan kurashini va erkinlikni o’zicha talqin qilishini ifodalaydi.

“The Last Leaf” hikoyasida esa badiiy tasvir vositalari hayot va o’lim o’rtasidagi nozik chegara, inson irodasining kuchi va umid degan buyuk tushunchalarni timsollar orqali ochib beradi. “Ildizlari ko’rinmas iplar bilan hayotga bog’langan barg” obrazi o’quvchida katta estetik taassurot uyg’otadi. Bu yerda barg nafaqat jonli tabiat obrazidir, balki inson qalbidagi yashashga bo’lgan ishtiyoq, sinmaslik ruhi va irodaning ramziga aylanadi. O. Henry oddiy bir daraxt bargini umidning timsoliga aylantirib, badiiy tafakkurning kuchini namoyon etadi.

“Barg shunday mahkam osilib turardi, go’yo uning ildizlari ko’rinmas iplar bilan hayotga bog’langan edi.”

Bu metafora qahramon Jonining ichki umidi va hayotga bo’lgan ishonchini aks ettiradi. Bu hikoya davomida barg umid timsoliga aylanib, inson irodasi va hayot uchun kurashning badiiy ifodasi sifatida namoyon bo’ladi.[1]

O. Henry ijodida metafora va tashbehlar faqatgina matnni bezab turuvchi unsurlar emas, balki har bir hikoyaning asosiy g’oyaviy va hissiy zaminini mustahkamlovchi kuchli badiiy tayanchdir. U bu vositalar orqali o’quvchini voqealar ichiga olib kiradi, his–tuyg’ularni uyg’otadi, va har bir qahramon hayoti orqali butun bir davr ruhini aks ettiradi.

Shu tarzda, O. Henryning badiiy uslubi –bu sodda ko’rinish

ortiga yashiringan teranlik, kulgu ortidagi iztirob, oddiy obrazlar orqali ifodalangan murakkab insoniy haqiqatdir. Uning metaforalari hayotiy haqiqatni yoritadi, o’quvchini o’ylantiradi va har bir hikoyani esda qolarli, ta’sirchan badiiy asarga aylantiradi.

Shukur Xolmirzayev hikoyalarida badiiy tasvir vositalari

O’zbek adabiyotining yirik vakillaridan biri Shukur Xolmirzayev o’ziga xos uslub va xalqona ifoda orqali o’zbek xalqining ruhiy olamini, ma’naviy dunyosini va hayot falsafasini badiiy so’z vositasida mujassamlashtirgan adibdir. U badiiy tasvir vositalarini –xususan, metafora va tashbehnlarni –nafaqat estetik maqsadda, balki xalq tafakkurining o’ziga xos qirralarini ochib berish, milliy xarakterni yoritish va inson ruhiyatining eng nozik jihatlarini ifodalashda samarali qo’llaydi.

Shukur Xolmirzayevning asarlarida metafora va tashbehlar oddiy badiiy bezak emas, balki ma’naviy yuk, falsafiy chuqurlik, hayotiy tajriba va xalq donishmandligining ifodasidir. Uning badiiy uslubi xalq og’zaki ijodining ruhi bilan uyg’unlashgan bo’lib, har bir tasvir xalq hayotining tabiatiga, ruhiyatiga va qadriyatlariga uyg’un holda yaratilgan.

Masalan, “Ot egasi” hikoyasida insonning taqdiridan qochib qutula olmasligi haqida quyidagi metafora ishlatiladi:

“Odam ba’zan o’z taqdiridan qochib qutula olmaydi, xuddi ot egasidan ajrala olmagan kabi.” [2]

Bu metafora inson hayotining muqarrarligi, qismat oldidagi o’zgaruvchanlik bilan uyg’un yashash zaruratini chuqur ma’no bilan tasvirlaydi. Unda xalqona hikmat, sodda, ammo teran anglash mavjud.

“O’zbeklar” hikoyasida milliy xarakterni ochib beruvchi quyidagi metafora mavjud: [2]

“O’zbek yuragi yerga o’xshaydi –unga qanchalik mehr bersang, shuncha hosil olasan.”

Bu metafora yer timsoli orqali xalq qalbining kengligi, mehr–muhabbatga ochiqqligi va bunyodkorlikka bo’lgan intilishini tasvirlaydi. Adib shu orqali o’zbek millatining eng yuksak fazilatlarini badiiy ifoda bilan yoritadi.

Bundan tashqari, “Bodom qovug’i” hikoyasida qahramonlar hayotining murakkabligini ko’rsatish uchun metaforalardan foydalaniladi:

“Hayot ba’zan bodom qovug’idek mo’rt bo’ladi, uni ehtiyot qilmasang, maydalanib ketadi.” [2]

Bu metafora hayotning beqarorligi, inson ruhining sinuvchanligi va hayotiy ehtiyotkorlik zaruratini xalqona ramz orqali ko’rsatadi. Hikmatli, qisqa, ammo chuqur ma’no ega bunday ifodalar Shukur Xolmirzayev ijodining o’ziga xosligidir.

“Chiroqlar o’chmagan kecha” hikoyasida esa tashbehlar orqali qahramon ruhiy holati jonlantiriladi:

“Qorong’u tun ichida yongan chiroqlar umrning so’nggi nuriga o’xshardi.” Ushbu tashbeh inson umidining so’nggi lahzalarini ta’riflash uchun ishlatilgan. [5]

Umuman olganda, Shukur Xolmirzayevning metaforalari O. Henrynikidan tubdan farq qiladi. U xalqona donishmandlik, hayotiy falsafa, milliy ong va ijtimoiy anglash orqali metaforalarga teranlik baxsh etadi. Uning tasvirlari o’zbek xalqining tarixiy tajribasi, qadimiy dunyoqarashi va ma’naviy boyligini aks ettiruvchi badiiy manba sifatida xizmat qiladi.

Shu tariqa, Shukur Xolmirzayev ijodida badiiy tasvir vositalari –bu xalqning o’tmishi, buguni va ertasi orasidagi ko’prikdir. Ular orqali o’quvchi nafaqat voqeani, balki xalq ruhini, yashash falsafasini va insoniy qadriyatlarni his etadi.

Ingliz va o’zbek adabiyotlarida badiiy tasvir vositalarining taqqosiy tahlili

O’xshashliklar: Har ikkala adib –Shukur Xolmirzayev ham, O. Henry ham –metafora va tashbeh kabi badiiy tasvir vositalarini inson qalbining nozik kechinmalarini, tuyg’ularning eng teran qatlamlarini ochib berishda mohirlik bilan qo’llaydilar. Ularning har bir obrazida inson ruhiy olamining bir parchasini ko’rish, his etish

mumkin. Soʻz bilan chizilgan bu suratlar oʻquvchini faqat voqelik bilan emas, balki his-tuygʻular olami bilan ham yuzlashtiradi.

Ikkala yozuvchining asarlarida tabiat manzaralari, hayvon obrazlari, shuningdek, kundalik hayotiy holatlar orqali insoniy fazilatlar –mehr-oqibat, sabr-toqat, fidoyilik, muhabbat kabi ezgu tuygʻular yuksak badiiyatda tasvirlanadi. Masalan, bir qarashda oddiy bir daraxt, sokin bir daryo yoki sadoqatli it timsoli orqali inson xarakterining butun bir qirralari ochiladi.

Badiiy tasvir vositalari har ikki adib ijodida qahramonlarning xarakterini chuqurroq anglashda, ularning ruhiy olamiga kirib borishda kalit vazifasini bajaradi. Har bir metafora, har bir tashbeh –bu nafaqat estetik vosita, balki maʼnaviy yukga ega boʻlgan ifoda shaklidir.

Shuningdek, metaforalar hikoyalarda ilgari surilgan asosiy gʻoyalarni yanada kuchliroq aks ettirish, oʻquvchiga taʼsirchanroq yetkazish imkonini beradi. Ular orqali asardagi voqealar mazmun jihatdan chuqurlashadi, syujet esa hayotiy, taʼsirchan va esda qolarli tus oladi.

Bu jihatlar Shukur Xolmirzayev va O. Henry ijodida ham oʻz ifodasini topib, ularning uslublarida muayyan badiiy oʻxshashliklarni koʻrish mumkin.

– Har ikkala adib metafora va tashbehlarini inson kechinmalarini ifodalashda ishlatadi.

– Tabiat va hayvon obrazlari orqali insoniy fazilatlar aks ettiriladi.

– Badiiy tasvir vositalari qahramonlar xarakterini ochib berishda muhim ahamiyatga ega.

– Metaforalar hikoyalar asosiy gʻoyalarni yanada kuchaytiradi.

Farqlar: O. Henryning metaforalari koʻpincha sarkazm va yumor bilan yoʻgʻrilgan boʻlib, u oʻzining har bir hikoyasida kutilmagan, gohida esa kulgili burilishlar orqali oʻquvchini hayratda qoldirishni maqsad qiladi. Uning badiiy ifodalari nozik istehzo bilan sugʻorilgan boʻlib, hayotning achchiq haqiqatlarini ham jilmayish bilan qabul qilishga undaydi. Shunday qilib, uning metaforalari voqega quvnoqlik, yengillik va hayotiy dinamika bagʻishlaydi.

Shukur Xolmirzayev esa metaforalarda xalqona donishmandlikni, azaliy milliy qadriyatlarni va hayotiy falsafani mujassamlashtiradi. Uning tasvirlarida teran maʼno, yurakdan chiqqan ogʻriq, va ayni paytda xalqona iymon va sabr mujassam. Har bir obraz, har bir ramz oʻzbek xalqining tarixiy xotirasi, ogʻir mehnati va ichki ruhiy dunyosini aks ettiradi. Uning metaforalari orqali nafaqat shaxsiy kechinmalar, balki butun bir el-yurtning yashash ruhi, sabr-toqati, or-nomusi gavdalanadi.

O. Henry asarlarida metaforalar hikoyaning dinamikasini oshirish, syujetga oʻtkir burilishlar kiritish va oʻquvchini har doim sergak holda ushlab turish uchun xizmat qiladi. U metaforalarni goʻyo til oʻyini sifatida ishlatadi –ular oʻziga xos badiiy nayrang vazifasini bajaradi. Shukur Xolmirzayev esa bunday tasviriy vositalarni milliy ruhni uygʻotish, xalq hayotining teran qatlamlarini koʻrsatish, hayot falsafasini ochib berish uchun qoʻllaydi.

Shuningdek, O. Henry qahramonlarining ichki dunyosini koʻpincha soddalashtirib, oddiy va tushunarli tasvirlar orqali oʻquvchiga yaqinlashtirishga harakat qiladi. Uning badiiy uslubi xalqchil, sodda va bir oz kinoyali. Shukur Xolmirzayev esa koʻp qavatli, murakkab maʼnolarni oʻz ichiga olgan metaforalar orqali obrazlar yaratadi. Bu obrazlar ichki maʼno jihatdan chuqur, koʻp darajali tahlilni talab etadi. Agar O. Henry badiiy tasvirlar orqali shaxsiy kechinmalarning rang-barang palitrasini chizsa, Shukur Xolmirzayev esa oʻz metaforalari orqali xalq hayotining umumiy manzarasini yaratadi –u oʻz asarlarida jamiyat ruhini, insoniylik mohiyatini, milliy ong va qadriyatlar ifodasini sanʼat darajasiga koʻtaradi.

Aynan mana shu yondashuvlar adiblar metaforalaridan foydalanish uslubidagi farqlarni belgilaydi:

– O. Henry metaforalari koʻpincha sarkazm va yumor bilan boyitilgan boʻlsa, Shukur Xolmirzayevning metaforalari falsafiy mazmun va milliy ruh bilan yoʻgʻrilgan.

– O. Henry metaforalardan hikoya dinamikasini oshirish va kutilmagan burilishlar yaratish uchun foydalansa, Xolmirzayev ularni xalq hayotini aks ettirish va milliy qadriyatlarni ifodalashda qoʻllaydi.

– O. Henry qahramonlarining ichki kechinmalarini soddalashtirishga harakat qilsa, Xolmirzayev murakkab, koʻp qavatli maʼno yuklangan metaforalar orqali oʻz obrazlarini yaratadi.

– O. Henry hikoyalarida badiiy tasvir vositalari koʻproq shaxsiy kechinmalarga qaratilgan boʻlsa, Xolmirzayev metaforalar orqali xalqning umumiy hayotiy tajribasini ochib beradi.

Xulosa

Ushbu tadqiqot davomida O. Henry va Shukur Xolmirzayev ijodiy merosi tahlil qilinarkan, ularning badiiy tasvir vositalari orqali milliy xarakter yaratishdagi yondashuvlari oʻrtasida muhim farqlar va oʻxshashliklar aniqlab berildi. [4] Metafora va tashbehlar har ikki adibning uslubida oʻzgacha badiiy mahorat bilan ishlatilgani kuzatildi –biroq ularning maqsadi, ifoda yoʻli va gʻoyaviy vazifasi jihatdan tubdan farqlanadi.

O. Henryning metaforalari koʻproq hayotning kutilmagan burilishlarini koʻrsatish, inson ruhiy kechinmalarini yumor va istehzo orqali yengillashtirish, hikoya voqealarini dinamika va drammatizm bilan boyitishga xizmat qiladi. U hayotni oddiy, ammo oʻtkir nigoh bilan tasvirlab, oʻquvchini kulgu va achinish oʻrtasida yurishga majbur etadi. Uning badiiy uslubi voqealar soddaligida emas, balki ular ortidagi chuqur maʼno va syujet oʻyinlarida namoyon boʻladi.

Shukur Xolmirzayev esa metafora va tashbehlar orqali xalq hayotining musaffo manzarasini, milliy ruh va qadriyatlarni, jamiyatning ogʻriqli muammolari ortidagi ichki haqiqatlarni yuksak sanʼat darajasida ifodalaydi. Uning har bir badiiy obrazida xalq donishmandligi, hayotiy tajriba va oʻzbekona tafakkurning chuqur ildizlari seziladi. Xolmirzayev badiiy tasvir vositalarini nafaqat estetik maqsadda, balki tarbiyaviy va maʼnaviy vazifa bilan ham uygʻunlashtiradi.

Adabiyotlar roʻyxati

1. Henry, O. The Gift of the Magi and Other Stories. New York: Harper and Brothers, 1905.
2. Xolmirzayev, Sh. Saylanma asarlar. Toshkent: Gʻafur Gʻulom nomidagi nashriyot, 2005.
3. Richards, I. A. The Philosophy of Rhetoric. Oxford University Press, 1936.
4. Lotman, Yu. M. Badiiy matn strukturasi. Moskva: Nauka, 1981.
5. Narinov, R. Oʻzbek adabiyotida metafora va uning semantikasi. Toshkent: Fan, 2012.